

O‘ZBEKISTONNING HUDUDIY SOLIQ ORGANLARI XODIMALARI TOMONIDAN SOLIQ TO‘LOVCHILARGA XIZMAT KO‘RSATISH TAKOMILASHTIRISH HOLATI TAHLILI

Ibragimov Akbarxon Akramxonovich

Independent researcher at Tashkent

State University of Economics

<https://orcid.org/0009-0008-1403-5016>

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatda soliq sohalarida ko‘p yillardan buyon soliq ma‘murchiligini takomillashtirish bo‘yicha rivojlantirish sarhisobi, biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarni takomillashtirishda hududlararo soliq inspeksiyasini o‘rni va ahamiyati yoritilgan. O‘zbekiston soliq tizimida amalga oshirilayotgan ayrim muhim islohotlar o‘rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo‘llash bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: soliq siyosati, soliq tushumlari, tahlika-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Kirish. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjet daromadlarining barqarorligini ta‘minlash va tadbirkorlik muhitini yaxshilash bevosita soliq ma‘murchiligining samaradorligiga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar doirasida soliq tizimini soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish va jarayonlarni to‘liq raqamlashtirish ustuvor vazifa etib belgilandi. Biroq, soliq stavkalarining optimallashtirilishi o‘z-ovuzidan budjet tushumlari o‘shishini kafolatlamaydi; bu jarayonda soliq to‘lovchilar bilan ishlash mexanizmlarini, ya‘ni ma‘murchilikni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish talab etiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hududiy soliq organlari xodimalari tomonidan soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish holati so‘nggi yillarda tubdan takomillashib bormoqda. Bu jarayonda asosiy e‘tibor soliq to‘lovchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga qulay, shaffof va zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan. Avvalo, xizmat ko‘rsatishning samaradorligi xodimalarning kasbiy tayyorgarlik darajasi, ularning axloqiy madaniyati va muloqot qilish qobiliyatiga bevosita bog‘liq. Hududiy organlarda faoliyat yurituvchi xodimalarning doimiy ravishda malakasini oshirish, xizmat madaniyatini yaxshilash va yangicha ish uslublarini o‘zlashtirishga qaratilgan seminar va treninglar o‘tkazilmoqda.

Bu esa o'z navbatida murojaatlarni ko'rib chiqishda shaffoflik, odillik va tezkorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, hududiy organlar tomonidan aholining turli qatlamlari, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlar bilan ishlashda individual yondashuv amaliyoti kengaymoqda. Soliq to'lovchilarga tushunarli tilda ma'lumot berish, ularning savollariga tezkor javob qaytarish va maslahat berish xizmati yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, soliq solishga oid qonunchilikdagi yangiliklar, imtiyozlar va tartib-taomillar bo'yicha doimiy ravishda profilaktik tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Bundan tashqari, aholi va biznes vakillarining soliq organlariga bo'lgan ishonchi darajasi tobora ortib bormoqda. Bu esa xizmat ko'rsatish sifatining oshishi, murojaatlar sonining kamayishi va elektron kanallar orqali olib borilayotgan aloqalar samarasini oshirmoqda. Masalan, soliq inspektorlari orqali xizmat ko'rsatishdan tashqari, elektron navbat, onlayn maslahat xizmatlari va virtual qabulxonalar orqali ham murojaat qilish imkoniyati kengaydi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda xizmat ko'rsatishda hanuz kamchiliklar mavjud bo'lib, ayniqsa, uzoq tumanlarda kadrlar yetishmovchiligi, infratuzilma muammolari va texnik jihozlanishning yetarli emasligi xizmat ko'rsatishning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu borada markazlashgan yechimlar, zamonaviy xizmatlar markazlari va harakatdagi xizmat mashinalarini joriy qilish orqali kamchiliklarni bartaraf etish mumkin. Hududiy soliq organlari xodimalari tomonidan xizmat ko'rsatish tizimida ijobiy o'zgarishlar mavjud bo'lsa-da, uni yanada takomillashtirish, xodimalarning kasbiy saviyasini muntazam oshirish va raqamlashtirish imkoniyatlaridan keng foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Soliq ma'murchiligining muhim yo'nalishlaridan biri bu "Mahallabay" ishlash tizimi bo'yicha hududlarda ishlarni samarali tashkil etib, bu bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi. Ular o'ziga tegishli hududdagi soliq to'lovchilarni to'liq xatlovdan o'tkazish (yuridik va jismoniy shaxslar). Natijada soliq to'lovchilarning manzil ma'lumotlari, bog'lanish ma'lumotlari shakllantirish orqali soliq ma'murchiligini bajarishda vujudga keladigan tafovutlarni tezkorlik bilan joyiga chiqqan holda bartaraf etishlari mumkin bo'ladi. Hududida mavjud bo'lmagan soliq to'lovchilarni joylashgan joyidagi o'zining faoliyat manziliga o'tkazish yoki aksincha hududiga mavjud bo'lsada boshqa mahallaga joylashgan soliq to'lovchilarni o'zining hududiga ro'yxatga o'tkazish choralarini ko'rish. Natijada xatlov natijasida hududiga mavjud bo'lmagan soliq to'lovchilarni amaldagi mahallasiga o'tkazish orqali ortiqcha ish yuklamasi bartaraf etiladi yoki aksincha hududida mavjud bo'lsada axborot tizimida boshqa mahalla biriktirilgan holatlarni bartaraf etish orqali soliq turlari bo'yicha qo'shimcha manba shakllanadi. Ish jarayonida davlat ro'yxatidan o'tmagan tadbirkorlar, shuningdek, guvohnomasining amal qilish muddati tugagan yoki faoliyatini vaqtincha to'xtatgan bo'lsada tadbirkorlikni davom ettirayotgan fuqarolarni faoliyatini qonuniylashtirish choralarini ko'rish.

Natijada noqonuniy tadbirkorlikka chek qo'yish orqali soyadan chiqarish, soliq ma'murchiligi barcha soliq to'lovchilar uchun respublikaning barcha hududida bir xilda ishlashini ta'minlash, budjetga qo'shimcha manbani jalb qilish. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagi bo'lgan fuqarolarga soliq qonunchiligi to'g'risida tushuntirishlar berish, (soliqlarni to'lash tartibi, muddatlari, hisobotlarining taqdim etilishi to'g'risida) shuningdek, soliq agenti mavjud bo'lmagan tadbirkorlarga soliq majburiyatini bajarishga ko'maklashish lozim bo'ladi, bu esa, hududidagi tadbirkorlarning soliq madaniyati oshadi, soliq majburiyatini o'z vaqtida to'g'ri va to'liq bajarish choralari ko'rishi natijasida ortiqcha vaqt va kuch sarflashni talab etmaydi. Tadbirkorlik faoliyati amalga oshirish joyida onlayn nazorat kassa mashinasi mavjud bo'lmagan tadbirkorlarga ONKM o'rnatish, fuqarolarga ko'rsatilgan xizmatlari uchun to'lanadigan naqd va naqdsiz pul shaklidagi barcha mablag'larga chek taqdim etilishi to'g'risida tushuntiradi va nazorat qilish natijada soliq bazasi oshadi, budjet uchun belgilangan prognoz rejalari bajarilmaslik xavfi kamayadi. Savdo qoidalariga rioya etilmaganligi uchun qonunchilikda belgilangan ta'sir choralari to'g'risida tushuntirish berib borish tufayli soliq bazasi oshadi, budjet uchun belgilangan prognoz rejalari bajarilmaslik xavfi kamayadi.

Korxonada faoliyat yuritayotgan xodimlarning barchasi soliq hisobotlarida mavjudligini o'rganadi, haqiqatda mavjud bo'lsada hisobotlarida mavjud bo'lmagan konvert usulida ishlab kelayotgan xodimlar faoliyatini legallashtiradi hamda ularga hisoblangan ish haqi miqdori qonunchilikka belgilangan eng kam me'yordan kam bo'lmasligini nazorat qilish oqibatida Respublika bo'yicha norasmiy bandlik ulushi kamayadi, soliq bazasi oshadi, budjetga qo'shimcha manba jalb qilinadi.

Soliq to'lovchilar faoliyati davomida soliq bazasini yashirish bilan bog'liq holatlarni o'rganadi asosli holatlar mavjud bo'lmagan taqdirda tovar aylanma miqdorini belgilangan tartiblardi oshirish choralari ko'rish natijasida soliq qonunchiligi respublikaning barcha hududida bir xil amal qilinishi ta'minlanadi, budjetga to'lanmasdan qolishi mumkin bo'lgan mablag'larning oldi olinadi. Jismoniy shaxslarning egaligidagi yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk ob'ektlari boshqa shaxslarga ijara berilgan holatlarda ijara shartnomasi tuzilganligini, ijara summasi to'g'ri ko'rsatilganligini, davlat ro'yxatiga qo'yilganligini va hisoblanadigan soliqlari o'z vaqtida to'lab kelinayotganligini nazorat qilish orqali daromad manbaiga ega bo'lgan soliq to'lovchilar soni oshadi, daromad solig'i bo'yicha soliq bazasi oshadi, soliq ma'murchiligi bajarilishi ta'minlanadi.

Soliq majburiyatini o'z vaqtida bajarmagan jismoniy va yuridik shaxslarga soliqlarini budjetga undirish bo'yicha zaruriy choralarni ko'rish tufayli soliq majburiyatini o'z vaqtida bajarmagan jismoniy va yuridik shaxslarning soliq qarzi budjetga majburiy tartibda undiriladi, soliq turlari bo'yicha prognoz ijrosi ta'minlanadi, qarzdorlik qisqartiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-

yil 30-dekabrda PQ-73-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining barqarorligini ta'minlash va xarajatlarning samaradorligini oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 31-bandiga asosan tovar-transport yuk xatlarini va tovar-moddiy boyliklar uchun ishonchnomalarni elektron shaklda rasmiylashtirishni tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-73-son qaroriga 8-ilovasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining barqarorligini ta'minlash va xarajatlarning samaradorligini oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 31-bandiga asosan tovar-transport yuk xatlarini va tovar-moddiy boyliklar uchun ishonchnomalarni elektron shaklda rasmiylashtirish vazifasi topshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahsulotlar (tovarlar) yagona elektron milliy katalogini joriy etish, tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida tuzilgan shartnomalarni elektron ro'yxatdan o'tkazish va tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnomalarni elektron shaklda rasmiylashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 28-aprelda 249-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarurati yuzaga kelgan. Vazirlar Mahkamasining "Soliq ma'muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 6-oktabrda 807-son qarorining ijrosi yuzasidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan tovar-transport yuk xatlarini elektron shaklda rasmiylashtirish tizimini joriy etish bo'yicha Toshkent viloyatining Chirchiq shahri, Navoiy va Sirdaryo viloyatlari hududida tajriba o'tkazilgan. Mazkur o'tkazilgan tajriba natijasida 2020-yil 1-yanvardan 2022-yil 31-martga qadar elektron shaklda rasmiylashtirilgan hisobvaraqa fakturalar soni 68 168 178 tani, shuningdek, rasmiylashtirilgan yukxati esa 3 953,9 mlrd.so'mlik 50 035 ta yuk xatini tashkil etmoqda. Yuk xatlarini elektron shaklda rasmiylashtirilishi hisobvaraqa fakturalarga nisbatan tahlil qilinganda jami hisobvaraqa fakturalarning 0,07 foiziga to'g'ri kelmoqda. Bu o'z navbatida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan tovarlarni to'liq kirim qilmasdan hisob-kitoblar amalga oshirilayotganligiga guvohi bo'lishimiz mumkin. Buning natijasida budjetga soliq va yig'imlardan bo'yin tovlash holatlari olib kelmoqda.

Soliq ma'murchiligida elektron hisobvaraqa-fakturalar (EHF) va elektron yuk xatlarining shakllantirilishi holatining tahlillarining ko'rsatishicha, elektron hujjat aylanmasining soliq ma'murchiligida qanday darajada keng qo'llanilayotganini namoyon etadi. 2025-yilning uchinchi choragida 496 145 ta korxonadan 11 695 515 ta elektron hisobvaraqa-faktura rasmiylashtirilgan bo'lib, bu raqamlar EHF foydalanish amaliyoti yanada rivojlanayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, 101 208 ta ishlab chiqaruvchi va ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan 2 785 185 ta elektron yuk xati tuzilgan. Tahlildan ko'rinib turibdiki, mamlakatda elektron hujjat aylanmasini joriy etish va uning qo'llanish sohasini

kengaytirish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar o'z samarasini bermoqda. Xususan, EHF va elektron yuk xatlarining joriy qilinishi orqali soliq organlarining nazorat funksiyalari avtomatlashtirilmoqda, korxonalar faoliyatini to'liq hisobga olish imkoni yaratilmoqda va "ko'chadan sotish" hamda "chek bermaslik" kabi salbiy holatlar kamaymoqda.

Shu bilan birga, ayrim korxonalarda elektron yuk xatlarini rasmiylashtirish darajasi EHFga nisbatan past ekanligi ko'rinmoqda. Bu holat sohadagi barcha sub'ektlar tomonidan elektron hujjat aylanmasini to'liq va o'z vaqtida joriy etishni yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, elektron hisobvaraqa-faktura va elektron yuk xatlarining qo'llanishi orqali soliq ma'murchiligi shaffoflashib, soliq tushumlari oshishiga xizmat qilmoqda. Ammo bu jarayonda barcha korxonalarining faol ishtirokini ta'minlash, ayniqsa yuk xati tizimini kengroq qamrab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar.

Soliq tekshiruvlarini tayinlashda korrupsiyani cheklash uchun to'liq avtomatlashtirilgan "Risk-analiz" tizimini yanada takomillashtirish.

Nizolarni sudgacha hal qilish (apellyatsiya) tizimini raqamlashtirish va shaffofligini ta'minlash.

"Smart Compliance": Soliq to'lovchi xatoga yo'l qo'ymasidan oldin tizim orqali "proaktiv ogohlantirish" mexanizmini joriy etish.

Soliq yukini adolatli taqsimlash: "Yashirin iqtisodiyot"da yurgan subyektlarni raqamli monitoring (elektron hisob-faktura, onlayn NKM) orqali rasmiy sektorga o'tkazish.

Soliq organlarini "nazorat qiluvchi" organdan tadbirkorga "ko'maklashuvchi servis" organiga aylantirish.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. Жўраев А., Сафаров Ғ. Солиқ назарияси. Ўқув қўлланма. –Т.: “Иқтисод-мoliya”, 2005. 48-бет
2. Аронов А. В., Кашин В. А. Налоги и налогообложение: учеб. пособие. — М.: Магистр, 2007. — С. 99—100.
3. Камалнев Тимур Шамилевич. Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертация на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Москва 2009.
4. Soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.